

## O'zbek va ingliz tillaridagi terminlarning tarjimadagi muommolari

**Xudoyberdiyeva Durdona Boburovna**

O'zMU Xorijiy Filologiya fakulteti II  
bosqich talabasi Tel: +998932260034

### ABSTRACT

Ushbu maqolada ingliz tilidagi ma'lum bir sohaga tegishli bo'lgan terminlarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida leksik-semantik va ma'noviy xususiyatlari tadqiq etilgan. Shu bilan birgalikda, tarjimon, avvalo, har bir so'zning fonetik, grammatik xususiyatlarini, ma'no, mohiyati va vazifasini matn va lug'at yordamida aniqlab talqin etishi, so'ngra o'z tilida unga monand lisoniy birlik tanlay olishi ta'kidlanadi.

### ARTICLE INFO

**Received:** 10<sup>th</sup> December 2023

**Revised:** 8<sup>th</sup> January 2024

**Accepted:** 10<sup>th</sup> February 2024

**KEY WORDS:** termin, atama, soha mutaxassisi, terminologik tizim, arxaizmlar, istorizmlar

**Annotation.** In this article, the lexical-semantic and spiritual features of the terms related to a certain field of the English language in the process of translation into the Uzbek language are studied. At the same time, the translator should be able to define and interpret the phonetic and grammatical features, meaning, essence and function of each word with the help of text and dictionary, and then to be able to choose a linguistic unit similar to it in his own language are discussed.

**Key words:** term, field specialist, terminological system, archaisms, historicisms.

**Аннотация.** В данной статье изучаются лексико-семантические и духовные особенности терминов, относящихся к определенной области английского языка, в процессе перевода на узбекский язык. При этом переводчик должен уметь с помощью текста и словаря определять и интерпретировать фонетические и грамматические особенности, значение, сущность и функцию каждого слова, а затем уметь выбирать сходную с ним языковую единицу в его собственный язык.

**Ключевые слова:** термин, профильный специалист, терминологическая система, архаизмы, историзмы.

Hozirgi o'zbek adabiy tili qurilishida terminologiya alohida o'rin va mavqega egaligi bilan ajralib turadi. Terminologiyaning til lug'at tarkibidagi roli haqida ikki dunyoqarash mavjud. Birinchi g'oyaga ko'ra, terminologiya adabiy til leksikasining mustaqil qatlami tarzida e'tirof etilsa, ikkinchi ta'limotga muvofiq u adabiy til so'z boyligi tarkibidan ajratiladi, "alohida turuvchi" obekt tarzida baholanadi va nutqning turlari

(sheva, jargon, jonli so‘zlashuv)ga tenglashtiriladi.<sup>1</sup>Tarjimada ma‘lum bir terminlarni to‘g‘ri tarjima qilish muayyan zaruriy shartlarni talab qiladi. Bunda terminlar bilan ishlash jarayonida tegishli soha mutaxassisi bo‘lmagan shaxslarda bunday terminlarni tarjima qilish va tushunish bilan bog‘liq ko‘pgina qiyinchiliklar yuzaga keladi. Buning asosiy va yagona sabablaridan biri har qanday terminologik so‘z yoki birikma vaqt o‘tishi bilan eskirib, yangilanib borishidir. Tarjima jarayonida bunday terminlarni tushunish va muqobil tarjimasini chiqarish uchun muloqot doirasida faollik xususiyatini yo‘qotmagan davriga qaytish talab etiladi. Bunda ayrim terminlar boshqa bir aniq, talabga javob beradigan terminlar bilan almashtiriladi, muomaladan chiqib ketgan boshqa terminlarning o‘rmini esa yangi terminlar bilan to‘ldiriladi. Tilshunoslikda yangi so‘zning kelib chiqish tarixini o‘rganish, aniqlash nisbatan oson, lekin eski so‘zlarning etimologiyasini, uning dastlabki ma‘no anglatish xususiyatlarini tahlil qilish ancha murakkabdir. Biror so‘zning kelib chiqishini aniqlashda, mazkur so‘zning boshqa tillardagi tovush strukturasi va ma‘nolari bilan qiyoslanadi.<sup>2</sup> Shunday ekan, bunday terminologik tizimda tarjima bilan bir qatorda, til tarixida va shu vaqtlarda bo‘layotgan o‘zgarishlarni bilish talab etiladi. Hozirgi yangi ingliz terminologik tizimida har bir sohaga oid leksik-semantik tabiatini saqlagan tushuncha va terminlar mavjud. Ular soha amaliyoti bilan bog‘liq ma‘lumotlarni uzatishda qo‘l keladi va ularni tushunish, tarjima qilish yuqorida aytib o‘tilgan talablarga javob beradigan tarjimonga unchalik qiyinchilik tug‘dirmaydi. Ingliz tilidan o‘zbek tiliga o‘girilayotgan aksariyat terminlar o‘zbek tilida so‘z birikmalar yoki ta‘rifini berish orqali ifoda etilishini taqozo etadi. Misol uchun, “Acute - "O‘tkir" atamasi kasallikning vaqt ko‘lamining o‘lchovidir va ko‘pincha qisqa muddatli, tez rivojlanadigan va shoshilinch yordamga muhtoj bo‘lgan kasallik sifatida qaraladi. Bu atama "surunkali" atamalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qarama-qarshidir. O‘tkir suyak singanidan tortib astma xurujlarigacha bo‘lgan har qanday narsaga nisbatan ishlatilishi mumkin”, Biopsy - bu mikroskop ostida tekshirish va hujayralardagi anormalliklarni tekshirish uchun tana to‘qimalarining kichik namunalarini olishni o‘z ichiga olgan tibbiy protsedura termini. Namuna tananing deyarli har qanday joyidan, shu jumladan teri, organlar va boshqa genetik tuzilmalardan olinishi mumkin”, “Embolism - Bu tananing bir hududida qon tomirlarida hosil bo‘lgan qon pufakchalari, so‘ngra parchalanib, qondagi tananing boshqa qismiga o‘tadi - bu emboliya deb ham ataladi. Emboliya qon tomiriga kirib, ma‘lum bir organ yoki to‘qimalarga qon ta‘minotini blokirovka qilishi mumkin”<sup>3</sup> Buni esa, o‘z navbatida, terminologiyadagi bir tarkibli terminlarning leksik shakllari sintaktik murakkablashuviga olib kelgan deyish mumkin. Yuqoridagi terminlar zamonaviy va angilangan terminlar qatoridan joy olgan. Shuning ba‘zida zamonaviy so‘z va iboralar deyarli tarjima qilinmaydi, ya‘ni bunday atamalar o‘zlashgan so‘zlar qatorida qabul qilinadi. Shuningek, ular bir xil ma‘noni anglatadi va bu holatni qisman globallashuv jarayonining bir bo‘g‘ini deyish ham mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ba‘zi bir eski adabiy asarlarni ingliz tili odan o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida arxaik terminlarga duch kelish mumkin. Ularni to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilish bilan emas, balkim hozirgi kundagi leksik ma‘nosini berish orqali cheklanadi. Chunki, bunday terminlar davr o‘tishi bilan arxaik leksemalar qatoridan o‘rin olgan terminlar hisoblanadi. Ba‘zida, hozirgi vaqtda yozilgan asarlarda ham eskirgan adabiy terminlardan ya‘ni obrazlar o‘rtasidagi oddiy so‘zlashuv vaqtida arxaizmlar va istorizmlardan foydalanishini ko‘rishimiz mumkin. Bunda ular tarixiylik koloritini berish uchun ishlatiladi.<sup>4</sup> bunday vaqtlarda terminlarni o‘zbek tiliga to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilish mumkin. Bu esa tarjimada hech kim hech qanday murakkablik va qiyinchilik tug‘dirmaydi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ingliz tilida meditsina, badiiy adabiyot va boshqa sohalarga oid terminlar umumadabiy tilda ham qo‘llanilsada, ular o‘z sohasida chuqurroq ma‘noga ega bo‘ladi. Terminlarning turli ma‘nolari har bir tildagi so‘z boyligi, aholining yashash tarzidan kelib chiqib ham turlicha bo‘ladi. Shuningdek, so‘zlashuv uslubida qo‘llanilmaydigan sof adabiy, siyosiy va ijtimoiy so‘zlar ham bo‘lib, ulardan foydalanayotganda, ehtiyotkorlik zarur va albatta terminlar lug‘atidan foydalangan ma‘nul. Chunki millatlararo ishlatiladigan so‘zlar bir xil shakl va ma‘noga ega bo‘lib kelmoqda. Biroq haligacha

<sup>1</sup> H. Dadaboyev. “O‘zbek Terminologiyasi” – 2019. Toshkent. – B.4.

<sup>2</sup> I. Yo‘ldoshev, O‘. Sharipova. “Tilshunoslik asoslari” – 2007. Toshkent: “Iqtisod – Moliya”. – B.117.

<sup>3</sup> <https://www.linkedin.com/pulse/medical-terminology-25-basic-terms-every-medicine->

<sup>4</sup> <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Arxaizm>

millatlar va ularning tilshunoslik sohasida milliy soʻz va iboralarni ham keng qamrovda ishlatilayotganini uchratishimiz mumkin

**Tanlangan adabiyotlar roʻyxati:**

1. I. Yoʻldoshev, Oʻ. Sharipova. “Tilshunoslik asoslari” – “Iqtisod – Moliya”. – Tashkent. 2007.
2. <https://www.linkedin.com/pulse/medical-terminology-25-basic-terms-every-medicine->
3. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Arxaizm>
4. H. Dadaboyev. “Oʻzbek Terminologiyasi” – 2019. Toshkent.
5. A.G.Maksumov. “English grammar: theory and usage” – “Choʻlpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi”- Tashkent. 2016.